

## SO‘ZLASHUV NUTQI LISONIY O‘ZGARISHLARNING MANBAI SIFATIDA

**Zubaydullo Izomovich RASULOV**  
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Buxoro davlat universiteti  
Buxoro, O‘zbekiston

## РАЗГОВОРНАЯ РЕЧЬ КАК ИСТОЧНИК ЯЗЫКОВЫХ ИЗМЕНЕНИЙ

**Зубайдулло Изомович РАСУЛОВ**  
Кандидат филологических наук, доцент  
Бухарский государственный университет  
Бухара, Узбекистан

## SPEECH AS A SOURCE OF LANGUAGE CHANGE

**Zubaydullo Izomovich RASULOV**  
Phd, associate Professor  
Bukhara State University  
Bukhara, Uzbekistan

UDC (УЎК, УДК): 81-25

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**  
Rasulov Z. I. So‘zlashuv nutqi lisoniy o‘zgarishlarning manbai sifatida // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — №.4 (45). — B .20-29.

<https://doi.org/10.36078/1664529656>

**Received:** April 14, 2022

**Accepted:** August 17, 2022

**Published:** August 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Open Access**

**Annotatsiya.** Til tizimida kechadigan o‘zgarishlarni faqat kuch yoki energiyani tejash maqsadi bilan bog‘lash g‘oyasi o‘z paytida tilshunoslar o‘rtasida keng tarqalgan edi. Biroq keyingi kuzatishlar guvohlik berishicha, ushbu hodisa o‘zgarishlar yuzaga kelishining yagona sababi bo‘lmasdani, balki turli holat, kuchlarning o‘zaro uchrashuvni til tizimi rivoji yo‘nalishlarini belgilab beradi. So‘zlashuv nutqida lisoniy tejamkorlik va axborot ortiqchalik tamoyillari amal qilishi olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Maqolada tejamkorlik axborot ifodasida implikativ usullar faollashishi, bunga esa, tagma no ifodasining har qanday ko‘inishida bo‘lganidek, lisoniy vositalarni tejash orqali erishilishi, oqibatda, gapning dialogik shakli ko‘pincha birgina so‘zdan iborat bo‘lishi va u yoki bu sababga ko‘ra faqat bitta gap bo‘lagi eksplitsit tarzda namoyon bo‘lishi odad tusiga aylangani kognitiv metod asosida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** tejamkorlik tamoyili; kodlashtirilgan til; so‘zlashuv uslubi; dialog; monolog; sintaktik struktura; dialogik diskurs; lingvometodologiya.

**Аннотация.** Среди лингвистов была широко распространена идея приписывать изменения в языковой системе исключительно цели экономии усилий или энергии. Однако дальнейшие наблюдения показывают, что это явление не единственная причина изменений. И все же взаимная встреча различных ситуаций и сил определяет направление развития языковой системы. Ученые признают, что в разговорной речи действуют принципы языковой экономии и информационной избыточности. В исследовании утверждается, что экономия заключается в активизации импликативных способов выражения информации, что достигается за счет экономии языковых средств. Диалогическая форма предложения чаще всего состоит из одного слова, и по тем или иным причинам принято, чтобы

явно выражалась только одна часть предложения. В статье был использован когнитивный метод анализа.

**Ключевые слова:** принцип экономии; кодированный язык; стиль речи; диалог; монолог; синтаксическая структура; диалогический дискурс; лингвометодология.

**Abstract.** The idea was widespread among linguists to attribute changes in the language system solely to the goal of saving effort or energy. However, further observations show that this phenomenon is not the only cause of change. Still, the mutual meeting of various situations and forces determines the direction of the development of the language system. Scientists recognize that the principles of language economy and information redundancy operate in colloquial speech. The study claims that the economy consists in the activation of implicative ways in expressing information, which is achieved by saving language means. The dialogical form of the sentence most often consists of one word, and for one reason or another it is customary to only one part of the sentence was explicitly expressed. What happened **was analyzed on the basis of the cognitive method.**

**Keywords:** economy principle; coded language; speech style; dialogue; monologue; syntactic structure; dialogic discourse; linguomethodology.

**Kirish.** Sinergetik taraqqiyot g‘oyasining tarafdarlaridan bo‘lgan E. Shermatov uqtirganidek, inson oqilona harakatining axborot strukturasi uning oldiga qo‘yilgan vazifa bilan bog‘liq holda shakllanadi. “Inson, — deb yozadi olim, — boshqa tirik mavjudotlardan farqli ravishda, tasavvur qilish qobiliyatiga ega, ya’ni sodir bo‘lishi kutilayotgan voqeа-hodisalarning obrazini yarata oladi hamda shu yo‘sinda erishilgan xulosalarga binoan harakatlarini rejalaشتiradi” (20, 172).

Tejamkorlik tamoyilining og‘zaki nutq sintaksisi tizimida vogelanishini o‘rgangan G. G. Infantova ushbu tamoyilning asosiy belgisi muloqot jarayonida vaqtin tejash ekanligini qayd etadi. Olima juda o‘rinli ta’kidlaganidek, ushbu tamoyilni tor doirada, ya’ni tildagi o‘zgarishlarning ichki omili ta’sirida yuzaga keladigan hodisa sifatida qarash to‘g‘ri emas, “chunki bu inson tabiatining o‘ziga xos xususiyatidir. Insoniyat taraqqiyotining butun tarixida ushbu hodisaning ta’siri bor. Tildagi tejamkorlik mazkur hodisaning xususiy ko‘rinishidir” (7, 74).

**Asosiy qism.** Lisoniy tejamkorlik yaqqol namoyon bo‘ladigan so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va ma’lum ko‘rinishdagi qoidalar doirasida kechadi. Tadqiqotchilar so‘zlashuv nutqini adabiy uslubdagи nutqqa qarama-qarshi qo‘yishga odatlanishgan. Natijada, ba’zilar uning hech qanday qoidalarga amal qilmasdan sodir bo‘lishini uqtirmoqchi bo‘ladilar. Jumladan, “O‘zbek tili stilistikasi” kitobining mualliflari oddiy so‘zlashuv uslubiga betakalluflik bilan erkin muomala qilish xarakterli ekanligi tufayli unda emotsiyonallik yaqqol sezilib turishini ko‘rsatib o‘tadilar. Ularning fikricha, “oddiy so‘zlashuv stili tarkibiga sodda tilga xos elementlarni, ya’ni u yoki bu darajada tilning adabiy normalariga mos

kelmaydigan fonetik, grammatik, leksik-frazeologik hodisalarini kiritish mumkin” (21, 14).

Bizningcha, so‘zlashuv vaziyatida grammatic shakllar yoki ma’lum turdagи sintaktik tuzilmalarini qo‘llash mumkinligi haqida savol tug‘ilmaydi. Lekin bu ularning lisoniy faoliyatdagи batamom erkinligi degani emas. So‘zlashuv nutqiga ham o‘ziga xos tizimlilik xos. Shu bois, so‘zlashuv nutqida til birliklarining o‘ziga xos ravishda faollashuvini qayd etish bilan birgalikda, uning bir qator farqlovchi lisoniy xususiyatlarga egaligini e’tirof etishayotgan tilshunoslarning fikriga qo‘shilamiz. Xuddi shu xususiyatlar so‘zlashuv nutqining alohida lingvistik tizimni tashkil qilishini e’tirof etishga undaydi. Y. A. Zemskayaning ta’biricha, ‘kodlashtirilgan til va so‘zlashuv nutqi alohida, bir-birini takrorlamaydigan me’yorlar tizimiga ega va ularni qandaydir bir adabiy tilning umumiyy me’origa tenglashtirib bo‘lmaydi” (6, 240).

So‘zlashuv nutqi ma’lum ko‘rinishdagi qonuniyatlar asosida rivojlanadi va harakatlanadi. Bunday qonuniyatlar uning aniq bir vaziyat bilan bog‘lanishi, oddiy va aniq ko‘rinishda kechishi, betakallufligi, lisoniy tejamkorligi kabilar bilan belgilanadi. Amerikalik tilshunoslар so‘zlashuv uslubi tildan e’tiborsizlik bilan foydalanish namunasi bo‘lmasligini hamda “uning xuddi rasmiy tilda bo‘lganidek, aniq, qat’iy va mantiqiy asosga ega qonuniyatlar nazoratida ekanligini qayd etadilar” (1, 271).

So‘zlashuv nutqining tizimli tuzilishiga ega ekanligini e’tirof etayotib, uning tizimliliqi nisbiy ekanligini eslatib o‘tmoqchimiz. Norasmiy vaziyatda va erkin holatda kechadigan og‘zaki muloqot nolisoniy omillar ta’sirida kechadi va unda lisoniy qonuniyatlar har doim ham ijtimoiy me’yorlar nazoratida bo‘lavermaydi. So‘zlashuv nutqi qoidalari bolalikdan insonlar ongidan o‘rin olib, stereotiplashib boradi va ulardan so‘zlovchilar beixtiyor foydalanadilar. Bunday tashqari, grammatic me’yorlardan har qanday chekinishni xato sifatida baholash mumkin emas. Zero, hech bir me’yor doimiy emas, ular uzlusiz o‘zgarib va rivojlanib boraveradi. Ingliz olimi F.Howard bejizga “jonli tilda hamma narsa oqimda bo‘lib, hech bir narsa sokin turmaydi”, (in a living language everything flows and nothing stays still) deb aytmagan bo‘lsa kerak (23, 10).

Mazkur fikr o‘zbek tilshunosi N.Mahmudov tomonidan yanada batafsil bayon etilganining guvohimiz: “Til yaralgandan buyon tinimsiz va muttasil o‘sish-o‘zgarish jarayonlarini boshidan kechirib keladi. ... Necha ming yillardan beri tilda vogelanib kelayotgan o‘sish-o‘zgarishdan iborat muntazam harakat til tirikligini ta’minlaydigan, uning uzun umriga tirkak tutadigan va shu tariqa uning sohibi bo‘lgan qavmning yugurik zamon va yumaloq makondagi qadru qimmatini salomat saqlaydigan bemisl bir qudratdir. Shuning uchun him tiriklik rutbasidagi til hech qachon tamoman qotib qolgan sokin holatda emas, balki hamisha harakat otlig‘ hayot ichida bo‘ladi, ana shu harakat uni zamonlardan zamonlarga to‘rt ko‘z tugal olib o‘tadi” (14, 90).

Til va nutq tizimlarida kechadigan o‘zgarishlarni birinchi navbatda lug‘at tarkibi va grammatikada namoyon bo‘ladi. Tizimdagi asosiy siljishlarning manbai dastavval so‘zlashuv nutqi ekanligi ham barchaga ma’lum. Zero, aynan so‘zlashuv nutqida til taraqqiyoti, undagi o‘zgarishlarga turtki beradigan yangi shakllar paydo bo‘ladi.

So‘zlashuv nutqi tizimi tahlili bilan shug‘ullangan izlanuvchilar dialogik matn tuzilishining asosiy tamoyillaridan biri tejamkorlik qonuniyati asosida voqelanuvchi ellipsis hodisasi ekanligini qayd etadilar. Chunki dialogda ma’lum bir vazifani bajarmaydigan va fikr ifodasi talablariga mos kelmaydigan har qanday birlik ortiqcha hisoblanadi (13, 140). Bunday ko‘rinishdagi lisoniy tejamkorlik, ayniqsa, sintaktik sathda yaqqol namoyon bo‘ladi, tejab qolinishi mumkin bo‘lgan har qanday birlik tushirib qoldiriladi. So‘zlashuv nutqining ellipsisga moyilligi shakl jihatidan turlicha ifodalangan, ammo bir xil pragma-stistik samara beradigan so‘z qo‘llanishi holatlarini yuzaga keltiradi. Keyinchalik ushbu innovatsion holatlar boshqa funktional uslublarga ham ko‘chadi.

Ravshanki, dialogik nutqda ifodalanayotgan axborot va lisoniy qatlam o‘rtasidagi nomuqobililik xosdir, uning tarkibida lisoniy birliklarning sarfi imkonni boricha kamaytiriladi. Dialog, monologdan farqli ravishda, fikrni nutqda to‘liq bayon qilmaslik, lisoniy vositalarni mumkin qadar tejab qolish imkonini beradi (11, 183). Shuning uchun dialog nutqiy muloqotning yetakchi shakli deb hisoblanadi, uning tarkibida saqlanib qolgan bo‘laklar mazmunan boy bo‘lib, “replikalarning qisqaligi va tejamliligi axborotning boshqa manbalari (paralingvistik va nolisoniy vositalar) hisobidan to‘ldiriladi” (4, 205).

Dialogik nutqda bir tarkibli gaplar keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Bunda gaplarda faqat birgina axboriy bo‘lak lisoniy ko‘rinish olib, boshqalari esa tagma’noda ifoda topadi. Shaklan ko‘rinish olayotgan bo‘lak odatda uzatilayotgan axborotning remasi, ya’ni yangi, muhim qismi sifatida qaraladi. O.A.Krilovaning fikricha, rematik bo‘laklar propozitsiyani aks ettirish xususiyatiga ega. Ushbu xususiyat ularning javob replikasida mustaqil ravishda fikrni inkor etish qobiliyatiga egaligi hamda ajratilgan bo‘lak o‘rnini egallab, mustaqil ravishda sub’ekt modallik mazmunini olishi bilan belgilanadi (9, 117). Qiyoslang:

*When did you get there?*

*I dont know [Wednesday morning. Early]. (D. Salinger. A Perfect Day for Banana Fish).*

Ajratib ko‘rsatilayotgan ikkita elliptik gap yagona nutqiy tuzilmani hosil qilmoqda. Ushbu tuzilmada faqat zamonga xos axborot faollashmoqda. Chunki bu munosabat muloqot jarayonining mazkur bosqichida so‘zlovchi uchun ahamiyat kasb etmoqda. Bu yerda shaklan ko‘rinish olmagan axborot bo‘laklariga ishora qisman suhbатdoshning savolida mavjud.

Quyidagi tuzilmada esa faqat so‘z ketayotgan predmetning nomi eslatilib, axborotning qolgan qismi mantiqiy amallar asosida tiklanadi:

*Must you wear those glasses?*

*Well, yes. The glare* (Spark M. *The dark glasses*).

Tarkibida faqat birgina axborot bo‘lagi sintaktik ko‘rinish olgan tuzilmalarda predmet nomi oldingi replikada xususiyat, sifat nomi sifatida eslatilgan predmetning aniqlovchisi mazmunini olishi mumkin:

*She may be in any of a thousand places [At a hairdressers]* (Spark M. *The dark glasses*).

Bu yerda elliptik gap alohida nutqiy tuzilma vazifasini bajarmoqda. Zero, uning tarkibida suhbatdoshga tanish deb hisoblanayotgan yangi nom (the hairdressers) paydo bo‘lmoqda. Mazkur birlik oldingi gapdagi a thousand places bo‘lagini aniqlashtirish bilan bir qatorda harakatni makonlashtirmoqda.

Dialogik nutqda keng tarqalgan to‘liqsiz gaplarning tarkibida gap bo‘laklarining mavjud emasligi me’yordan chekinishni anglatmaydi. Mazkur to‘liqsizlik, birinchidan, kontekst bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, javob replikasining to‘liqsiz sintaktik strukturaga ega bo‘lishi so‘zlashuv nutqi tamoyillariga javob beradi. Boz ustiga, javob replikalarini struktur jihatdan to‘ldirish me’yor talablariga mos kelavermasdan, aksincha, axborot ortiqchilik holatini yuzaga keltirishi mumkin. Shu o‘rinda nutqiy muloqot nazariyasining asoschilaridan bo‘lgan A. Gardinerning quyidagi fikrini eslash lozim: “Brevity is perfectly normal and congruent in replies to questions” (5, 213) // Lo‘ndalik savollarga berilgan javoblar uchun o‘ta normal va mosdir (tarjima o‘zimizniki). Ma’lum qilinayotgan axborotning miqdorini chegaralash pragmalingvistlar tomonidan olg‘a surilgan va muloqotning samarasini belgilaydigan asosiy tamoyillardandir (16, 125). Darhaqiqat, “Qobusnama”da “Gar so‘zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so‘zni sindirmag‘il, to‘g‘ri ta’rif qilg‘il va uni bir rangda aytg‘il: xosga xos so‘z, omiyga omiy so‘z deg‘il, toki u hikmatga muvofiq bo‘lsun va eshitg‘on kishiga og‘ir kelmasun, yo‘qsa so‘zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag‘aylar” (8, 40).

Dialogning ikkinchi replikasi tarkiban to‘liq bo‘lmasa-da, lekin adabiy til me’yorlariga mos ravishda hosil bo‘ladi, uning bo‘laklari kerakli shakllarni oladi. Ushbu replika mazmuniy tugallikka faqat dialogik matn tarkibida ega bo‘ladi. Ularning mustaqil qo‘llanish imkoniyati chegaralangan va birinchi replikaga mazmunan tobedir.

Ellipsis yozma diskurs uchun ham yet emasligi ma’lum, ammo ushbu hodisa og‘zaki matn diskursida yetakchilik qiladi. Vaziyat bilan bog‘liqlik axborotning oldin eslatilgan qismini tushirib qoldirishga imkoniyat tug‘diradi. So‘zlashuv nutqida vaziyatning ahamiyati shu qadar yuqoriki, hatto ba’zan u axborotning rema qismini ham tushirib qoldirishga imkon beradi va bunga nolisoniy vositalarning faollashuvi sharoit yaratadi. Aslini olganda, lisoniy faoliyat sharoitida biron bir

bo‘lakni hech qanday asossiz mazmunga ta’sirsiz tushirib bo‘lmaydi. Bunday holda me’yor talablariga javob beradigan to‘liq shakldagi tuzilmalar bilan bir qatorda, ba’zi bo‘laklari mavjud bo‘lмаган tuzilmalar ham nutqda ishtirok qilishini qayd etish kerak bo‘ladi.

Og‘zaki nutqning yana bir xususiyati sintaktik vositalar ixchamligida namoyon bo‘ladi. Ushbu uslubda kam miqdordagi so‘zlardan tuzilgan sodda gaplar ko‘prok uchraydi. So‘zlashuv matnining bevosita, oniy yaratilishi sababli ixcham tuzilishdagi gap qulay ko‘rinadi. Chunki qisqa tuzilmalar xotirada oson saqlanadi va so‘zlovchiga nutqning mazmuniga ko‘proq e’tibor qaratishga va harakat ko‘lamini tejashga imkon beradi. Dialogik muloqot ko‘pincha favqulodda yuzaga keladigan jarayon bo‘lganligi tufayli shakl ikkinchi o‘ringa o‘tadi. Kundalik nutqiy muloqotning ushbu holatlari tayyor qoliplar, turg‘unlashgan iboralardan keng miqyosda foydalanishga undaydi. Natijada, tadqiqotchilar dialogni ko‘pincha qoliplashgan savollarga turg‘unlashgan javoblar berishdan tashkil topadigan nutqiy tuzilma sifatida ta’riflashga urinadilar (10, 21). Savol-javob dialogida savol replikasining shakli javobning shaklini belgilab beradi va bunda namunani to‘liq saqlashdan ko‘ra, savol qo‘yilayotgan gap bo‘lagini qayta takrorlash ma’qul topiladi.

Ayni paytda “dialogik nutqning favqulodda kechishi shaklga e’tiborsizlikni keltirib chiqaradi” degan aqida haqiqatga to‘g‘ri kelmasligini aytmoqchimiz. Bu yerda, har qanday favqulodda kechadigan jarayonda bo‘lganidek, nutqdagi beixtiyoriylik old o‘ringa chiqadi. O‘z paytida L.P. Yakubinskiy “dialogik shakl nutqning avtomatik faoliyat ko‘rinishida kechishiga sharoit yaratadi” degan qaydni aytib o‘tgan edi (22, 53). Buning bilan, olim qayd etganidek, dialog monologga nisbatan nutqning “progressiv”, ya’ni rivojdagi shakli ekanligini isbotlaydi. Mazkur kognitiv-lisoniy qoliplar insonning nutqiy faoliyat bilan bog‘liq tajribasi takomillashuvi mobaynida uning lisoniy ongida jamlanib boradi va bevosita muloqot jarayonida ulardan favqulodda foydalanish malakasi shakllanadi.

Boshqa tomondan, dialogik diskurs kechishida yangi, vaqtinchalik tuzilmalar yaratilib, ulardan muloqot maqsadini qondirish uchun foydalilanadi. Ushbu innovatsion xususiyatdagi tuzilmalar ham so‘zlashuv nutqi qonuniyatlariga batamom bo‘ysinadi. Zero, dialogik birlıklarning siqqlik va ixchamlikka moyilligi har qanday holatda ham axborot nazariyasi qonuniyatları nazoratida bo‘ladi va ma’no jihatidan ortiqchalik qilinayotgan unsurlar tejab qolinadi.

Tilshunoslarning so‘zlashuv nutqiga bo‘lgan qiziqishining kuchayishi oqibatida kolokvialistika va konversatsion tahlil (conversation analysis) kabi yangi yo‘nalishlar shakllanib, ularning doirasida so‘zlashuv nutqi va dialogning lisoniy tabiatini yorqinroq tavsiflash imkoniyati tug‘ildi (18; 19, 89).

Dialog hodisasi tavsifiga bag‘ishlangan tadqiqotlar jonli til shakllarini aniqroq anglashga zamin yaratmoqda. Zotan, tilning aniq

muloqot vaziyatida voqelanishini o‘rganayotib, “biz tamoman boshqa olamga qadam qo‘yamiz va bunda til muloqot vositasi sifatida namoyon bo‘ladi hamda ushbu olam nutq orqali ifodalanadi” (2, 5).

Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganimizda dialog o‘ta murakkab, ko‘p jihatli hodisa ekanligi ayon bo‘ladi. Shu bois, ushbu hodisani har tomonlama o‘rganish ehtiyoji tug‘iladi. Nutqning dialogik shaklining ko‘pjihatligini e’tiborga olgan holda tilshunoslar va boshqa gumanitar fanlar vakillari ushbu hodisaning tadqiqiga rejalashtirilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib turlichayondashmoqdalar.

Dialogik muloqot qoidalarini yoritishga harakat qilgan L. M. Makarov uni diskursiv tabiatga ega ekanligini qayd etadi. Olimning nazdida dialog o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, unda bir turdagilutqiy akt ikkinchisining turi va xususiyatini aniq belgilab berolmaydi. “U faqat dialogni shakllantiruvchi va davom etuvchi nutqiy harakat bajarilishiga sharoit yaratadi. Ushbu nutqiy akt jo‘yali, kutilgandek va muloqot me’yori hamda qoidalariga hozirjavob bo‘lishi shart” (12, 19).

So‘zlashuv nutqining turli jihatlari har tomonlama o‘rganilib, ularning tabiatini va mohiyati haqida ko‘plab qimmatli fikrlar bildirib kelinayotgani ma’lum. Ammo tilshunoslik fanida hanuz qator muammolar mavjudki, ular ba’zi hodisalarning yetarlicha yoritilmagani yoki ba’zan nazardan chetda qolib kelayotganidan xabar beradi. Bir paytlar I.A. Boduen de Kurtene uqtirganidek, tilshunoslik fani “til yoki inson nutqini barcha ko‘rinishlarda tadqiq etish bilan shug‘ullanishi zarur” (3, 206).

**Xulosa.** Unutmaslik kerakki, til tizimi uzoq yillar mobaynida qandaydir mavhum, immanent strukturaga ega hodisa sifatida o‘rganib kelindi. “Struktur tilshunoslik vakillari garchi lingvistik belgini uch nuqtai nazardan (sintaktika, semantika, pragmatika) nuqtai nazaridan o‘rganish g‘oyasini olg‘a sursalar-da, lekin amalda sintaktika muammolarini hal qilish bilan cheklandilar” (15, 263). Shu sababli so‘zlashuv nutqi va dialogik tuzilmalarning shu paytgacha tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelayotgan ayrim xususiyatlarini aniqlash va ularni tahlil qilish zarurati mavjud. Zotan, lingvometodologiya sohasida bitilgan risolaning “Kirish” qismida qayd etilganidek, “asrlar, yillar davomida to‘plangan ma’lumotlar, tajribadan unumli foydalanish bilan bir qatorda, ushbu ma’lumotlarni zamon talablari asosida qayta tahlil qilish, yangi natijalar bilan boyitish har bir fan sohasining taraqqiyot omili va ehtiyojidir” (17, 5).

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akmadjian A., Demers R.A., Rarmer A.K., Harnish R.M. Linguistics. An Introduction to Language and Communication. — Cambridge, Mass.: The MIT Press, 1997. — 271 p.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика. — М.: Прогресс, 1974. — 448 с.

3. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкоznанию. — М.: Учпедгиз, 1963. — 206 с.
4. Бузаров В.В. Основы синтаксиса разговорной речи. — М: Кронпресс, 1998. — 205 с.
5. Gardiner A. The theory of Speech and Language. — Oxford: Oxford University Press, 1951. — 213 с.
6. Земская Е.А. Русская разговорная речь: Лингвистический анализ и проблема обучения. — М.: Русский язык, 1979. — 240 с.
7. Инфантова Г.Г. Экономия сегментных средств в синтаксисе современной русской разговорной речи. Дисс. ... докт.филол.наук. — Таганрог, 1975. — 485 с.
8. Кайковус. Қобуснома. — Т.: Истиқлол, 1994. — 176 б.
9. Крылова О.А. Коммуникативный синтаксис русского языка. — М.: URSS, 2009. — 117 с.
10. Курбанова Л.А. Простые и сложные предложения ассиметричной структуры в составе диалогического единства. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Ростов, 1994. — 21 с.
11. Лотман Ю.М. Механизмы диалога // Внутри мыслящих миров. Человек — семиосфера — история. — М.: Языки славянской культуры, 1996. — С.183-205.
12. Макаров Л.М. Основы теории дискурса. — М.: Гнозис, 2003. — 280 с.
13. Макаров М.Л. Деривация диалога // Деривация в речевой деятельности. — Пермь, 1990. 140 с.
14. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. — Т.: Мумтоз сўз, 2017. — 178 с.
15. Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // танланган асарлар. III жилд. — Т.: Академнашр, 2012. — 263 с.
16. Сафаров Ш. Лингвистика дискурса. — Челябинск: ЧГИК, 2018. — 125 с.
17. Сафаров Ш. Тил назарияси ва лингвометодология. — Т.: Баёз, 2015. — 376 б.
18. Sacks H. Lectures on Conversation. — Cambridge, Mass.: MIT, 1995. — 606 p.
19. Scheloff E. Goffman and analysis of conversation // Erving Goffman: Exploring the Iteraction Order. — Cambridge: CUP, 1988. — P. 89–135.
20. Шерматов Э.Н. Сверхпроводимость и память человека. — СПб.: Изд-во политехнического у-та, 2006. — 172 с.
21. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров О., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. — Т.: Ўқитувчи, 1983. — 248 б.
22. Якубинский Л.П. Избранные работы. Язык и его функционирование. — М.: Наука, 1986. — 205 б.
23. Howard Ph. The State of Language. — L.: Hamish Hamilton, 1984, —180 p.

### References

1. Akmadjian A., Demers R.A., Rarmer A.K., Harnish R.M. *Linguistics. An Introduction to Language and Communication*, Cambridge, Mass.: The MIT Press, 1997, 271 p.
2. Benvenist E. *Obshaya lingvistika* (General Linguistics), Moscow: Progress, 1974, 448 p.
3. Baudouin de Courtenay I.A. *Izbrannye trudy po obshchemu yazykoznaniiyu* (Selected works on general linguistics), Moscow: Uchpedgiz, 1963, 206 p.
4. Buzarov V.V. *Osnovi sintaksisa razgovornoy rechi* (Basic conversational syntax), Moscow: Kronpress, 1998, 205 p.
5. Gardiner A. *The theory of Speech and Language*, Oxford: Oxford University Press, 1951, 213 p.
6. Zemskaya E.A. *Russkaya razgovornaya rech': Lingvisticheskiy analiz i problema obucheniya* (Russian conversational language: Linguistic analysis and problem training), Moscow: Russky Yazyk, 1979, 240 p.
7. Infantova G.G. *Ekonomiya segmentnix sredstv v sintaksise sovremennoy russkoy razgovornoy rechi* (Economy of segmental means and syntax of modern Russian conversation), Doctor's thesis, Taganrog, 1975, 485 p.
8. Kaikovus. Qobusnom. Nightmare, Tashkent: Istiklal, 1994, 176 p.
9. Krylova O.A. *Kommunikativniy sintaksis russkogo yazika* (Communicative syntax of the Russian language), Moscow: URSS, 2009, 117 p.
10. Kurbanova L.A. *Prostye i slojnye predlozheniya asymmetric structure v sostave dialogicheskogo edinstva* (Simple and complex sentences of asymmetric structure as part of a dialogic unity), Extended abstract of candidate's thesis, Rostov, 1994, 21 p.
11. Lotman Yu.M. *Mekhanizmi dialoga* (Mechanisms of dialogue Inner thinking world, Man semiosphere history), Moscow: Yazyki slavyanskoy kultury, 1996, pp. 183–205.
12. Makarov L.M. *Osnovy teorii discourse* (*Fundamentals of the theory of discourse*), Moscow: Gnozis, 2003, 280 p.
13. Makarov M.L. *Derivasiya dialoga* (Derivation in speech activity), Perm, 1990, 140 p.
14. Mahmudov N. *Til tilsimi tadqiqi* (Linguistic Studies), Tashkent: Mumtoz Soz, 2017, 178 p.
15. Nurmonov A. Selected works, Volume III, Tashkent: Akademnashr, 2012, 263 p.
16. Safarov Sh. *Lingvistika diskursa* (Linguistic discourse), Chelyabinsk: ChGIK, 2018, 125 p.
17. Safarov Sh. *Til nazariyasi va lingvometodologiya* (Language Theory and Linguomethodology), Tashkent: Bayoz, 2015, 376 p.
18. Sacks H. Lectures on Conversation, Cambridge, Mass: MIT, 1995, 606 p.

19. Scheloff E. *Erving Goffman: Exploring the Iteraction Order*, Cambridge: CUP, 1988, pp. 89-135.
20. Shermatov E.N. *Sverkhprovodimost i pamyat cheloveka* (Superconductivity and Human Memory), St. Petersburg, 2006, 172 p.
21. Shomaksudov A., Rasulov I., Kongurov O., Rustamov H. *O'zbek tili stilistikasi* (Stylistics of the Uzbek Language), Tashkent, 1983, p.14.
22. Yakubinsky L.P. *Izbrannye raboty* (Selected works. Language and its Functioning), Moscow: Nauka, 1986, p.53.
23. Howard Ph. *The State of Language*, London: Hamish Hamilton, 1984, 180 p.